QADIM SURXON RAQSLARI HAQIDA MULOHAZA

Abujabborova Rozioy Sharofiddin qizi
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasining qadim o‘tmishini o‘zida saqlab kelayotgan, madaniy turmushi, diniy qarashlari, xalq tomoshalari, o‘yin va raqslarini jamlagan Surxon raqslari va raqs harakatlarining nomlanishi haqida qiziqarli ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Tarix, folklor, raqs, ritm, xatti-harakat. “to‘lqama”, “tebranma”, “irchitma”, “g‘ajir qo‘ndi”.

КОММЕНТАРИЙ О ДРЕВНИХ СУРХАНСКИХ ТАНЦАХ

Абуджабборова Розиой Шарофиддин кизи
Государственная академия хореографии Узбекистана
Студент Ургенчского филиала

Аннотация: В данной статье представлены интересные сведения о названиях сурханских танцев и танцевальных движений, сохраняющих древнее прошлое Сурханского оазиса, включая культурную жизнь, религиозные воззрения, народные представления, игры и танцы.

Ключевые слова: история, фольклор, танец, ритм, поведение. "всплеск", "вибрация", "освобождение", "огурец приземлился".

COMMENT ON ANCIENT SURKHAN DANCES

Abujabborova Rozioy Sharofiddin qizi
State Academy of Choreography of Uzbekistan
Student of Urganch branch

Annotation: This article provides interesting information about the names of Surkhan dances and dance movements, which preserve the ancient past of the Surkhan oasis, including cultural life, religious views, folk performances, games and dances.

Key words: History, folklore, dance, rhythm, behavior. "surge", "vibrate", "release", "cucumber landed".

Yurtimiz mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lgandan so‘ng jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni, nufuzi va mavqeiga ega bo‘ldi. Zero, mamlakatimizda boshlangan demokratik islohotlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ma’naviy hayotimizda ham yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan odilona siyosat natijasida ko‘p asrlik milliy qadriyatlarimiz, madaniyat va san’atimizga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda bu o‘zgarishlar yurtimizning barcha viloyatlarida, barcha sohalarda bo‘y ko‘rsatmoqda. Xususan, Surxon vohasi aholisining madaniy turmushi, diniy qarashlari, xalq tomoshalari, o‘yin hamda raqslari, musiqa asboblari, hunarmandchiligi, me’morchiligi, xalq og‘zaki ijodi va ijrochilari haqida qolaversa, surxon vohasining qadim o‘tmishini o‘zida saqlab kelayotgan surxon raqslari haqida qiziqarli ma’lumot to‘plash imkonini yaratdi.

Og‘zaki badiiy ijodi, musiqa folklori, milliy va mahalliy raqslarining rang-barangligi bilan yurtimiz raqs san’atida muhim o‘rin egallagan Surxon raqs san’ati o‘zining tarixiyligi, o‘ziga xosligi va qadimiy ko‘rinishda saqlanib qolganligi bilan hamda turli xil an’ana va odatlari, qo‘shiq va raqslari tarixiy ko‘rinishdagi liboslari bilan benihoya qadrlidir.

Surxon raqslari boshqa o‘zbek raqs maktablaridan ko‘chmanchi aholining turmush tarzi bilan bog‘liqliq holda yuzaga kelganligi jihatdan ajralib turadi. Yengil va dadil qadam tashlash, ma’noli qo‘l harakatlari, gavdaning mayin harakatlanishi bilan boyitilgan ayollar raqsida aksariyat hollarda turmushda ishlatiladigan qoshiq, urchuq, chig‘iriq, chiroq va boshqa ro‘zg‘or buyumlaridan foydalaniladi.

Erkaklar raqsida harakatlar yorqinroq xususiyat kasb etib, doimiy ravishda bir oyoqda sakrash, yerga cho‘kka tushgan holda gavdaning aylanma harakatlari, qo‘llarning samoga to‘g‘ri yoki yon tomonga xuddi qanotga o‘xshab cho‘zilishi bilan ajralib turadi. Erkaklar raqsida sovuq qurollardan pichoq, qilich va yog‘och tayoqlar ko‘proq ishlatiladi. Shu sababli bu raqslarni burgutning uchishiga taqlid sifatida ham qabul qilish mumkin.

Surxon raqslarida ham barcha harakatlarning alohida nomlanishi bo‘lib, ularning har bittasi malum ma’noga ega. Masalan: “to‘lqama” (gavdaning erlik to‘lg‘anishi), “tebranma” (gavdaning ma’lum yo‘nalishda tebranishi), “irchitma” (raqs davomida oyoq harakati yordami bilan yuqoriga qarab sakrash), “g‘ajir qo‘ndi” (oyoq harakati, o‘ng oyoq tizzadan orqaga bukilib ko‘tariladi), “qanot” (qo‘llarni ikki yonga qanotdek yozib bajariladigan harakat), “qur” (yakka raqqosni davra bo‘ylab o‘rab olish), “mo‘ralash” (zimdan qarash harakati), “muloyim” (oyoq harakati, oyoq noziklik bilan qadam tashlashi), “shilshila” (qo‘lni behol silkitib harakat qilish), “siltama” (qo‘l va oyoq harakati, qo‘l va oyoqlar ma’lum tomonga keskin uzatiladi yoki tana tomon harakatlashishi), “uchirma” (uchirma turgan joyida sakrash harakati) va hokazo.

Surxon raqslarining yana bir o‘ziga xosligi, Farg‘ona, Toshkent va Xorazm raqslaridan ajralib turishi shundaki, deyarli barcha erkaklar raqsida tana erkin qo‘yiladi. Tanaga nisbat bergan “To‘lg‘ama”, “Tebranma” usullar qo‘llanganda raqqos butun vujudi bilan raqsni ijro qilayotgani sezilib turadi. Raqqos xuddi butun olamni o‘z vujudiga joylagandek, olamda tanho faqat o‘zi qolgandek harakat qiladi. Bunday raqslarni ijro erayotgan erkak raqqos egniga yaktak yoki oddiy ko‘ylak, pastiga sholvor kiygan holda oyoqlarida mukki (yengil teri choriq) bilan raqsga tushadilar.

Ayollar libosida mahalliy matolar – alacha, bo‘z, jandadan (eski qiyiq mato) foydalaniladi. Matolarning ranglari esa juda yorqinligi bilan ajralib turadi. Liboslar oq ko‘ylak ichki kiyim yengida kashtalar o‘ziga mos siyrak nozik, nafis tikilgan ichki ko‘ylakning yoqasi ayollar bo‘yin qismini iyagigacha yopib turgan**.** Ustki kiyim ichki kiyim ustidan kiyilgan qadimda ayollar ikkita ko‘ylak kiyib yurishgan bu kiyimlar ayollarimizni issiq va sovuqdan himoya qilib kelgan. Ustki kiyimlar har doim turli rangda bo‘lgan asosan yashil, qizil, pushti, sariq va ko‘k ranglardan iborat bo‘lgan. Yengida kashtalar yirik va qalin bo‘lgan yeng markazida chayongul va katta oysimon naqsh chayongulni o‘rab turgan. Etaklari surxoncha kashtalar bilan bezatilgan ba’zida ko‘z tegmasin degan niyatda ko‘z shakli, semechka gul, quyosh shakli yaproq shakllari berilib tikilgan.

Raqqosa ayollarning bo‘yin, quloq va qo‘llari zebigardon, shodamarjon, bilakuzuk, zirak, nozigardon, kiftak, ko‘krak tumor, munchoq, qo‘ltiq tumor singari taqinchoqlar bilan bezatiladi.

Surxon raqslarining saqlanishi va targ‘ib etilishida Azim Surnay, Doni Mehtar, Usta Qurbon Davlatmurot o‘g‘li, Usta Karim nog‘orachi, Abdulla Karim o‘g‘li, Borat Karim o‘g‘li, Holik Xursandov, Mulla Juma Dutoriy, Xoji Bolta raqqos, Orzigul raqqosa, Xursand Qurbon o'g'li, Mulla Umar Dutorchi, Zikrilla Umarov, Abduxalil Nazarov, Shoira Qurbonova, Komil Rahmonov va boshqalarning xizmati katta. Bugungi kunda Surxon raqs an’analari “Boysun”, “Shalola”, “Bulbuligo‘yo”, “Chaman”, “Chechalar” va “Qizg‘aldoq” (Namunali bolalar ashula va raqs ansanmbli) kabi folklore-etnografik xalq ansambllarida davom ettirilib, targ‘ib qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Karimova “O‘zbek raqslari” Toshkent. 2003 y.

2. D.Sayfullayeva, S.Zokirova, X.Xamidova “Merosiy raqs durdonalari” Toshkent. 2003 y.

3. H.Xursandov, Sh.Qurbonova “Surxon raqs maktabi” Toshkent. 2011 y.

4. E.Saitova, N.Abrayqulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” Toshkent. 2015 y.